ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№9(3)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 420 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Boshlang'ich ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati 10
Maxmudova Fotima Shamshidinovna, Murodjonova Shahzoda Elyor qizi

Turli tayyorgarlik darajasidagi nemis tili talabalarining kommunikativ kompetensiyasini differensial mashqlar orqali takomillashtirish 15
Nafisaxon Nuriddinova Tolib qizi

Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar ta'limida STEAM yondashuvining ilmiy-nazariy asoslari 19
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, G'ulomova Maryam Baxrom qizi

Oliy ta'lim muassasalarida yosh professor-o'qituvchilarning kasbiy moslashuvini mentorlik asosida boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning mazmuni 23
Boybekova Farog'at Iskandarovna

Developing Prospective English Teachers' Pragmatic Interactional Competence Through a Hybrid Pedagogical Discourse Model 27
Makhliyo Safarova

Boshlang'ich sinflarda topishmoqlarni o'rgatish metodikasi 33
Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna

Raqamli ta'lim muhitida individual yondashuv orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ... 37
Nurova Malika Abduzairovna

Informatika fanini o'qitishda o'quvchilarning media savodxonligini summativ baholash metodikasi 41
Qodirova Dilnoza Abdusalim qizi

O'quv materiallarini tanlash va moslashtirishda kompetensiyaviy yondashuvning amaliy shakl, usul va vositalari 46
Xabibullayeva Shoira Shukurillayevna

Autodesk 3ds Max muhitida maxscript asosida pluginlar yaratish texnologiyasi va ularning samaradorligini qiyosiy tahlil qilish 50
Nizomov Sunnattilla Egamberdi o'g'li

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish usullari va texnologiyalari 56
Turdimuratov Baxtiyor Kurbonovich

Taekvondochilarda musobaqaoldi yuklamalarni me'yorlash 61
Nasilloyev Akobir Murodjon o'g'li

Globallashuv sharoitida turkiy davlatlar yoshlarida yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari 66
Nazarova Dilfuza Xolmirzo qizi

Dual ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda fan dasturlari va pedagogik amaliyot mazmunini sinxronlashtirishning didaktik mexanizmi 71
Umurov Zarif Latifboyevich

Система подготовки учащейся молодёжи в Узбекистане к военной службе и современные организационно-правовые основы 76
Садыков Рустам Музафарович

Эпоха искуственного интеллекта и цифровизации как фактор трансформации высшего образования 81
Сабирова Шахноза Шавкатовна, Саидова Шоира Шагиясовна

O'quvchilarning lirik asarni anglash va talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion metodlari ... 85
Kadirova Mashhura Nasirovna

Talaba xotin-qizlarda milliy harakatli o'yinlar orqali harakat faoliyatini tushunish va bajarish ko'nikmalarini nazorat qilish hamda ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati (eshitish analizatori cheklangan talaba qizlar misolida) 90
Turg'unova Dilnura Mamanazar qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Sport zallarida ultrabinafsha nurlanishdan foydalanish texnologiyasini sport fiziologiyasi va psixofiziologik mezonlar asosida baholash 96
Nazarov Sobir Usmonovich

O'smirlarda axborot olish madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari 103
Abdulxamidova Moxigul Bobirjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnli masalalarni yechishga o'rgatishda yangi avlod darsliklaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari 107
Zebo Qodirbekova

5–6 yoshdagi bolalarda refleksiv faoliyat elementlarini shakllantirish usullari 111
Karshiyeva Shahnoza Turakulovna

O'quvchilar fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 115
Tukhtabayeva Durdona Tulkunovna

Xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda art-terapiya va musiqaterapiyaning pedagogik imkoniyatlari (katta guruh tarbiyalanuvchilari misolida) 120
Umaraliyeva Xadichaxon Xusanjon qizi

Badiiy kulolchilik ta'limida "puzirok" sirlash texnologiyasining badiiy-estetik va metodik imkoniyatlari 126
Madumarova Zuhraxon Rashidjon qizi

Autentik materiallar yordamida xorijiy til yo'nalishi talabalarining ingliz tilidan tinglab tushunish kompetentligini rivojlantirish omillari 131
Bobonazarova Fazilat Pardaboyevna

Jadid maktablaridagi pedagogik g'oyalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning ilmiy-metadologik asoslari 135
Fozilov Rustambek Shokirjonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida raqamli immunitetni shakllantirishning nazariy-metodik asoslari 139
Ikromova Mahbuba Vali qizi

PISA xalqaro tadqiqoti natijalarining inson kapitali va iqtisodiy rivojlanishni prognozlash metodikasiga ta'siri 143
Laziz Xo'jaqulov

Oliy ta'lim muassasasi imidjini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar: tizimli tahlil va empirik yondashuv 152
Mirashirova Nargiza Anvarovna

Magistrlarni kasbiy faoliyatga yo'naltirish va tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari 156
Nazarov Bahodir Mo'minovich

Pedagogik diskurs ssenariylarini loyihalash texnologiyasi 159
Ochilova Nilufar Ulmasovna

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sog'lomlashtiruvchi texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning jismoniy holatini optimallashtirish 163
Saidmurodov Hojiakbar Salim o'g'li

Predictive Ai For Personalized Second Language Learning: Developing a Digital Model to Predict Learner Difficulties And Optimize Language Instruction 170
Shoxiniso Yusupova

Real pedagogik vaziyatlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash 176
Sunnatov Zafar Ubaydullayevich

Talabalarda aksiologik yondashuvlar asosida axloqiy munosabatni rivojlantirishning pedagogik asoslari 181
To'rayeva Barno O'ktamovna

Human–AI Collaborative Language Learning: Developing a Framework for Effective Interaction Between Language Learners, Teachers, and Generative AI 186
Tolibova Raykhonabonu

Funksional, tabiiy-ilmiy va biologik savodxonlik imkoniyatlarining konseptual o'zaro bog'liqligi 191
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik kontseptsiyasi 199
Xamrayeva Aziza Farhadovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Содержание и условия развития физической компетентности у студентов 202
Джабборова Севара Асрокул кизи

Современная дидактика высшего образования в условиях инновационной трансформации 207
Сабирова Шахноза Шавкатовна

Sun'iy intellekt asosida ta'lim mazmuni, metodlari va ta'lim resurslarini individuallashtirish 212
Mamadaliyeva Mumtozbegim Otabek qizi

Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari 217
Dilfuza A. Jo'rayeva

A Multilayer Model for Assessing English Speaking Competence Among Students in Grades 7–9 222
Mo'minxo'jayev Abrorxo'ja Muksumxodjayevich

Oilaviy munosabatlarning buzilishining psixologik xarakteristikasi 229
Butayeva Nodira Xudayarovna

O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda pedagoglarning fasilitativ faoliyatini takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari 233
Asadova Maxliyo Shuxratovna

Sport sohasi mutaxassislarini tayyorlashda raqamli texnologiyalarning nazariy asoslarini o'qitish masalalari 237
Nuriddinov Asliddin Husniddin o'g'li

Raqamli jamiyat sharoitida mediatsiya institutini rivojlantirish istiqbollari 242
Abdullayev Bahodir Ahmedovich

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish tizimini takomillashtirish 247
Yuldasheva Feruza Rustamjon qizi

Moddalarni metall korroziyasi ingibitorlari sifatida o'rganish 251
Yusupova Mahliyo Azamatovna

Микробуллинг в подростковой среде как фактор формирования психологической травматизации 257
Холдарова Индира Абдукаримовна

Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tili vositasida tolerantlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari 262
Adilbayeva Gulsaya Erkin qizi

Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikning jahon tajribasida o'rganilishi va uni bartaraf etishning psixologik mexanizmlari 266
Sadullayeva Jamilaxon Ibodilla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari 270
Abduqaxxarova Oyjahon Sultonboy qizi

Qariyalar uyi va uzoq muddatli parvarish muassasalarida psixologik xizmatning o'ziga xos xususiyatlari 275
Djumanazarov Yokubjon Turg'unbayevich

Ta'lim muassasalarida intellektual raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishning samaradorlik modeli 280
Ernazarov Zohid Nazarovich

Integrative use of POA and SCAMPER Technologies in English Language Education: Opportunities for Developing Prospective Teachers' Creative-Communicative Activity 288
Ibragimova Gulruh Rustam qizi

O'qituvchi faoliyatini kompetensiyaviy baholash indikatorlarini takomillashtirish 292
Jumakulova Mavludaxon Xosilovna

Teacher Roles and Student-Centered Learning in Uzbekistan: Lessons from Finland, Japan, and South Korea 301
Sheralieva Aziza

Профессиональное выгорание воспитателей ДОО 306
Ширбачеева Гульчехра Шакировна

Эмоциональное благополучие первоклассников как фундамент психологического здоровья детей 310
Ширбачеева Гульчехра Шакировна, Зарипова Екатерина Владимировна

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari kreativligini rivojlantirishning nazariy asoslari 314
Sheraliyeva Anora Ergashevna

Innovatsion ta'lim muhitida kasbiy mobil mutaxassis tayyorlashning pedagogik-psixologik omillari 317
Ismadiyorov Abdug'affor Abdujabborovich

O'zbek dostonchiligining rivojlanish tarixi 323
Sariyev Himoyat Matchonboyevich

Linguopragmatic Features of English Digital Discourse on Social Media in the Age Of AI 326
Davurova Gulkhayo Ibrokhim qizi

Oliy ta'limda bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mohiyati..... 331
Asqarova Mashrabxon Orifjon qizi

Davlat sektorida meritga asoslangan hrm amaliyotlari ishga qabul qilishdan integratsiyalashgan HR tizimigacha 336
Maxmudov Asqarali

Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik xususiyatlari..... 345
Rustamova Gavhar G'ayrat qizi

Development of Prognostic-Reflexive Competence of Future Teachers 348
Tojiboyeva Orzigul Marifjon qizi

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish..... 352
Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich

Oliy ta'limda modulli o'qitish texnologiyasini loyihalashtirish va tatbiq etishning umumpedagogik asoslari (musiqa ta'limi misolida) 360
Qabulova Sayyora Odilboy qizi

Lifelong Learning konsepsiyasi asosida uzluksiz ta'limni takomillashtirishning pedagogik asoslari 365
Qurbonova Nigina Boboxo'jayevna

Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirishning pedagogik asoslari..... 370
Urazbayeva Dilnoza Ruzimbayevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining universal ta'limiy faoliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari 374
Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li, D. Sh. Mukhiddinova

Boshlang'ich ta'limda xatodan o'rganish madaniyatini shakllantirish 379
Bakiyeva Muxabbatxon Kamaliddinovna

Sun'iy intellekt vositalari bilan ishlashda o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... 382
Rafiqova Sanobar Mansurjon qizi

O'smirlarda kiberqurbonlikka moyillik va unga aloqador psixologik ko'rsatkichlar: tanlanma tavsifi va taqsimot xususiyatlarining tahlili 386
Amonxonova Yanglishxon Abduazizxon qizi

Talabalarning o'zini-o'zi boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish: psixologik model va eksperimental intervensiya..... 391
Temirov Abror Orif o'g'li

"Umumiy mikrobiologiya" fanini o'qitishda tamoyillilik va kreativ yondashuvning o'rni 399
Abdunazarova Zulayxo Sharifqulovna

Aviatsiya talabalarining kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy komponentlari va ularni baholash mezonlari..... 405
Ergashaliyeva Dilshoda Baxromjon qizi

Ta'lim boshqaruvi menejerlari kompetensiyalarini rivojlantirishda xalqaro tajribadan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish..... 408
Nilufar Yuldasheva Abdullayevna

OLIY TA'LIMNI XALQAROLASHTIRISH SHAROITIDA INGLIZ TILI TA'LIMI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Urazbayeva Dilnoza Ruzimbayevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'limni xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirishning pedagogik asoslari nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Oliy ta'limning xalqaro akademik makonga integratsiyalashuvi ingliz tilini o'qitish mazmunini an'anaviy umumiy til tayyorgarligi doirasidan chiqarib, talabalarning akademik, kasbiy va madaniyatlararo kommunikativ ehtiyojlariga yo'naltirishni taqozo etmoqda. Xalqarolashuvning institutsional jarayon sifatidagi mazmuni hamda oliy ta'limda ingliz tilidan foydalanish bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar tahlili asosida ingliz tili ta'limi mazmunini yangilashning asosiy pedagogik yo'nalishlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'limni xalqarolashuv, ingliz tili ta'limi, ta'lim mazmuni, pedagogik asoslar, akademik ingliz tili, English for Academic Purposes, English-Medium Instruction, akademik kommunikativ kompetensiya, kasbiy kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, kompetensiyaviy yondashuv, xalqaro ta'lim muhiti.

Abstract: This article provides a theoretical and methodological analysis of the pedagogical foundations for improving the content of English language education in the context of the internationalization of higher education. The integration of higher education into the international academic space requires shifting the content of English language teaching beyond traditional general language training toward addressing students' academic, professional, and intercultural communicative needs. Based on an analysis of internationalization as an institutional process and modern research on the use of English in higher education, the core pedagogical directions for updating the content of English language education are identified.

Key words: higher education internationalization, English language education, educational content, pedagogical foundations, academic English, English for Academic Purposes (EAP), English-Medium Instruction (EMI), academic communicative competence, professional communicative competence, intercultural communication, competency-based approach, international educational environment.

Аннотация: В статье проводится теоретико-методологический анализ педагогических основ совершенствования содержания обучения английскому языку в условиях интернационализации высшего образования. Интеграция высшего образования в международное академическое пространство обусловливает необходимость выхода содержания обучения английскому языку за рамки традиционной общей языковой подготовки и его ориентации на академические, профессиональные и межкультурные коммуникативные потребности студентов. На основе анализа интернационализации как институционального процесса, а также современных исследований использования английского языка в высшем образовании определены основные педагогические направления обновления содержания обучения английскому языку.

Ключевые слова: интернационализация высшего образования, обучение английскому языку, содержание образования, педагогические основы, академический английский язык, English for Academic Purposes (EAP), English-Medium Instruction (EMI), академическая коммуникативная компетенция, профессиональная коммуникативная компетенция, межкультурная коммуникация, компетентностный подход, международная образовательная среда.

KIRISH

Oliy ta'limning xalqarolashuvi bugungi kunda ta'lim muassasalarining tashqi akademik aloqalarini kengaytirish bilangina cheklanmay, ta'lim mazmuni, o'qitish tili, akademik kommunikatsiya va kutilayotgan ta'lim natijalarini qayta ko'rib chiqishni talab qilayotgan institutsional jarayonga aylandi. Xalqarolashuv tushunchasi oliy ta'limning maqsadlari, funksiyalari va ta'lim berish jarayoniga xalqaro, madaniyatlararo yoki global o'lchamlarni integratsiya qilishni nazarda tutadi. Shu ma'noda, u alohida xalqaro loyihalar yoki akademik mobillik ko'rsatkichlari bilan chegaralanmay, ta'lim dasturlarining ichki mazmuni va pedagogik tashkil etilishiga ham taalluqlidir. Mazkur jarayonda ingliz tilining oliy ta'limdagi funksiyasi ham sezilarli darajada kengaymoqda.

Ingliz tili xalqaro ilmiy adabiyotlardan foydalanish, akademik muloqot, ilmiy hamkorlik, xalqaro konferensiyalar, akademik mobillik va transmilliy ta'lim jarayonlarida keng qo'llaniladigan kommunikativ resurslardan biriga aylangan. Natijada oliy ta'limda ingliz tilini o'qitish mazmunini faqat umumiy lingvistik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan chegaralash talabaning xalqaro akademik muhitdagi real kommunikativ ehtiyojlarini to'liq qamrab olmaydi. Biroq ingliz tilining oliy ta'limdagi mavqeyining kuchayishi avtomatik ravishda ta'lim mazmunining xalqarolashganligini anglatmaydi. Bu yerda muhim pedagogik masala ingliz tilini nima uchun va qanday mazmunda o'qitish kerakligi bilan bog'liq.

Talaba xalqaro akademik muhitda maqola o'qish, ilmiy fikrni yozma va og'zaki ifodalash, taqdimot qilish, mutaxassislikka oid terminologiyadan foydalanish, akademik munozarada ishtirok etish va turli madaniy-kontekstual xususiyatlarni hisobga olgan holda kommunikatsiya qilishga tayyor bo'lishi kerak. Demak, xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limining mazmuni til tizimini egallashdan tashqari, akademik va kasbiy faoliyatda tildan funksional foydalanishni ta'minlaydigan kompetensiyalarni ham qamrab olishi lozim.

Shu bilan birga, English-Medium Instruction (EMI), English for Academic Purposes (EAP) va ingliz tili ta'limi tushunchalarini o'zaro aynanlashtirish metodologik jihatdan to'g'ri emas. EMI ingliz tilida ingliz tilining o'zidan boshqa akademik fanlarni o'qitishni anglatadi, EAP esa talabaning akademik faoliyatda ingliz tilidan samarali foydalanishi uchun zarur bo'lgan til va akademik ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ushbu yo'nalishlar o'zaro kesishsa-da, ularning tadqiqot obyekti va pedagogik vazifalari farqlanadi. Shuning uchun xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirish masalasini faqat EMI dasturlarining kengayishi bilan izohlash yetarli emas; masalani ta'lim mazmunining maqsad, kompetensiya, akademik-kasbiy ehtiyoj va xalqaro kommunikatsiya bilan muvofiqligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish talab etiladi. Ayniqsa, xalqarolashgan oliy ta'lim muhitida ta'lim mazmunining sifatini belgilovchi omillar ko'p qatlamli xarakterga ega.

2026-yilda e'lon qilingan EMI bo'yicha sistematik tadqiqotda samarali ta'limga ta'sir qiluvchi omillar lingvistik jihatlarnigina emas, balki kognitiv, pedagogik, ijtimoiy-madaniy va tashkiliy omillarni ham qamrab olishi ko'rsatilgan. Bu holat ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirishni faqat o'quv materiallarini yangilash masalasi sifatida emas, balki maqsad, mazmun, metod, baholash va ta'lim muhitining o'zaro muvofiqligini ta'minlash masalasi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirishning pedagogik asoslarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Bunda ta'lim mazmuni talabaning umumiy til kompetensiyasidan boshlab akademik savodxonlik, mutaxassislikka yo'naltirilgan kommunikativ faoliyat, kasbiy muloqot va madaniyatlararo kommunikatsiyagacha bo'lgan kompetensiyalar tizimi sifatida qaralishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi – oliy ta'limni xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirishning pedagogik asoslarini aniqlash hamda mazmunni xalqaro akademik va kasbiy kommunikatsiya ehtiyojlariga muvofiqlashtirishning asosiy yo'nalishlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot doirasida ingliz tili ta'limi mazmunining xalqarolashuv talablari bilan muvofiqligi, akademik va kasbiy kommunikativ kompetensiyalarning mazmun tarkibidagi o'rni, EAP elementlarini integratsiyalash imkoniyatlari hamda ta'lim mazmunini kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuvlar asosida yangilash masalalariga e'tibor qaratiladi. Mazkur yondashuv xalqarolashuvni tashqi akademik aloqalar bilan cheklamasdan, uni ta'lim mazmunining ichki o'zgarishlari bilan bog'lash imkonini beradi. Shu jihatdan, ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirish oliy ta'lim muassasasining xalqaro akademik muhitga moslashuvini ta'minlovchi pedagogik mexanizmlardan biri sifatida qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'limni xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirish masalasini o'rganishda, avvalo, xalqarolashuv tushunchasining nazariy asoslarini aniqlash zarur.

Mazkur yo'nalishdagi fundamental ishlardan biri J. Knight tadqiqotlari hisoblanadi. Knight xalqarolashuvni oliy ta'limning xalqaro, madaniyatlararo va global o'lchamlarini uning maqsadlari, funksiyalari va ta'lim jarayoniga integratsiyalash jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning yondashuvida xalqarolashuv faqat talabalar almashinuvi yoki xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni anglatmaydi; jarayon institutsional siyosat, o'quv dasturlari va ta'lim amaliyotlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Knight tomonidan ishlab chiqilgan institutsional va milliy darajadagi yondashuvlar xalqarolashuvning oliy ta'limning ichki mazmuniga ham ta'sir qiluvchi tizimli jarayon ekanini asoslashga xizmat qiladi.

H. de Witning tadqiqotlarida esa oliy ta'limning xalqarolashuvining maqsadlari, yondashuvlari va strategik yo'nalishlari tizimlashtirilgan. Olim xalqarolashuvni faqat xalqaro faoliyatlar sonining ko'payishi bilan o'lchash yetarli emasligini, uning ta'lim dasturlari va ta'lim natijalariga qanday singdirilgani muhimligini ko'rsatadi. Shu jihatdan de Witning yondashuvi xalqarolashuvni institutsional faoliyatdan pedagogik jarayonga olib kiruvchi nazariy asos sifatida ahamiyatlidir.

B. Leask ushbu yo'nalishni o'quv dasturlari nuqtayi nazaridan yanada rivojlantirib, "Internationalization of the curriculum" konsepsiyasini ilgari surdi. Uning tadqiqotlarida xalqarolashuvning muhim natijasi talabaning

turli madaniy va xalqaro kontekstlarda faoliyat yuritishiga tayyorligini ta'minlaydigan o'quv dasturini shakllantirish bilan bog'lanadi. Leask yondashuvida o'quv dasturining xalqarolashuvi faqat xorijiy mazmunni qo'shish emas, balki o'quv maqsadlari, mazmun, o'qitish va baholashni xalqaro va madaniyatlararo nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Shu sababli uning konsepsiyasi ingliz tili ta'limi mazmunini xalqarolashuv masalasiga bevosita metodologik asos bo'la oladi. Leaskning konsepsiyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, xalqarolashuv sharoitida ingliz tili fani mazmunining o'zgarishi tabiiy ravishda til materialini yangilashdan kengroq jarayondir. Bunda talaba xalqaro akademik muhitda qanday vazifalarni bajarishi, qanday kommunikativ faoliyatga kirishishi va qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi kerakligi asosiy masalaga aylanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ingliz tilining oliy ta'limdagi funksiyasini tushuntirishda D. Graddolning tadqiqotlari ham muhim o'rin tutadi. Graddol ingliz tilining global miqyosdagi mavqeini tahlil qilib, uning fan, texnologiya, xalqaro iqtisodiyot va oliy ta'limdagi kommunikativ funksiyasi kengayayotganini ko'rsatgan. Bu yondashuv ingliz tilini faqat xorijiy til sifatida emas, balki xalqaro akademik va professional kommunikatsiya vositasi sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi. Mazkur nazariy yo'nalish oliy ta'limda ingliz tilidan bevosita fanlarni o'qitish vositasi sifatida foydalanish masalasini yuzaga chiqardi. Shu asosda English-Medium Instruction (EMI) alohida tadqiqot sohasi sifatida shakllandi. EMI bo'yicha dastlabki tizimli tadqiqotlardan birini E. Macaro va hammualliflari amalga oshirgan. Macaro, Curle, Pun, An va Dearden 2018-yilda oliy ta'limda EMI bo'yicha mavjud empirik tadqiqotlarni sistematik ravishda umumlashtirib, til natijalari, predmet mazmunini o'zlashtirish va EMI siyosati bilan bog'liq masalalarni tahlil qildilar. Ushbu tadqiqot EMI tadqiqotlarini alohida ilmiy yo'nalish sifatida tizimlashtirishga katta hissa qo'shdi.

Kasbiy yo'nalishga asoslangan ingliz tili ta'limi masalasida T. Hutchinson va A. Watersning English for Specific Purposes konsepsiyasi muhim o'rin tutadi. Ularning yondashuvida ESP ta'limi o'quvchining ehtiyojlari va kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bevosita bog'lanadi. Mazkur nazariya ingliz tili ta'limi mazmunini barcha talabalar uchun bir xil shaklda tashkil etishdan voz kechib, mutaxassislik, kasbiy vazifalar va kommunikativ ehtiyojlar asosida differensiallashtirish imkonini beradi. Demak, EAP va ESP nazariyalari ingliz tili ta'limi mazmunini ikki muhim yo'nalishda boyitadi: birinchisi – talabaning akademik faoliyatga, ikkinchisi – kasbiy faoliyatga tayyorlanishi. Xalqarolashgan oliy ta'lim sharoitida bu ikki yo'nalish bir-biridan ajratilgan holda emas, balki talabaning kelajakdagi akademik va professional faoliyati bilan bog'langan tizim sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ingliz tili ta'limi mazmunining yana bir muhim jihati madaniyatlararo kommunikatsiya bilan bog'liq.

M. Byram tomonidan ishlab chiqilgan "Intercultural communicative competence" konsepsiyasi xorijiy tilni bilishni faqat lingvistik kompetensiya bilan chegaralamasdan, boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, madaniy farqlarni tushunish, o'z nuqtayi nazarini boshqa kontekstlarda moslashtirish va kommunikativ vaziyatni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Byramning yondashuvi xalqarolashgan oliy ta'lim uchun ayniqsa muhim, chunki xalqaro akademik muhitda kommunikatsiya faqat ingliz tilining grammatik qoidalariga rioya qilish bilan belgilanmaydi. Talaba turli madaniy va akademik tajribaga ega bo'lgan shaxslar bilan hamkorlik qilishi, fikrlar farqini konstruktiv tarzda muhokama qilishi va kommunikativ strategiyalarini vaziyatga moslashtirishi kerak. Ushbu nazariy yo'nalishlarni umumlashtirganda, oliy ta'limni xalqarolashuv va ingliz tili ta'limi mazmuni o'rtasidagi bog'liqlikni bir necha ilmiy yondashuvlar orqali tushuntirish mumkin. Knight xalqarolashuvning institutsional va tizimli tabiatini asoslagan bo'lsa, Leask uning o'quv dasturiga integratsiyalashuvi masalasini rivojlantirdi. Graddol ingliz tilining global akademik va professional funksiyasini ko'rsatdi. Macaro va hammualliflar EMI orqali ingliz tilidan fanlarni o'qitishning ta'limiy oqibatlarini sistematik ravishda tahlil qildilar. Macaro va Aizawa esa EMI, EAP va ESP tadqiqotlarining umumiy va farqli jihatlarini aniqlashtirdi. Swales va Hyland akademik diskurs hamda janrga asoslangan yondashuvlar orqali akademik ingliz tilining mazmuniy xususiyatlarini ochib berdilar. Hutchinson va Waters ESP orqali til ta'limini kasbiy ehtiyojlarga moslashtirishni asoslagan bo'lsa, Byram til ta'limining madaniyatlararo komponentini nazariy jihatdan rivojlantirdi.

Mazkur tadqiqotlar bir-birini to'ldirsa-da, ular ko'proq alohida muammolarni – xalqarolashuv siyosati, EMI, EAP, ESP, akademik diskurs yoki madaniyatlararo kompetensiyani o'rganishga yo'naltirilgan. Shundan kelib chiqib, xalqarolashuv sharoitida oliy ta'limdagi ingliz tili ta'limi mazmunining yaxlit pedagogik tuzilmasini ishlab chiqish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Aynan shu nuqtada mazkur tadqiqotning ilmiy yo'nalishi belgilanadi. Mavjud nazariyalar asosida ingliz tili ta'limi mazmunini uch darajada ko'rib chiqish mumkin:

birinchi daraja – umumiy lingvistik va kommunikativ tayyorgarlik;

ikkinchi daraja – akademik va kasbiy kommunikatsiya;

uchinchi daraja – xalqaro va madaniyatlararo akademik muhitda mustaqil faoliyat yuritish kompetensiyasi.

Bunday tuzilma ingliz tili ta'limini faqat tilni o'rgatish jarayoni sifatida emas, balki talabaning xalqaro akademik va professional faoliyatga tayyorgarligini ta'minlovchi pedagogik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shu asosda xalqarolashgan oliy ta'lim uchun ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida akademik ingliz tili, mutaxassislikka yo'naltirilgan ingliz tili, madaniyatlararo kommunikatsiya, akademik yozuv va og'zaki kommunikatsiya, xalqaro akademik diskurs hamda real kasbiy kommunikativ vazifalarni o'zaro integratsiyalash taklif etiladi. Bunda mazmunni tanlash talabaning mavjud til darajasi bilan bir qatorda uning ta'lim yo'nalishi, akademik ehtiyojlari va kelajakdagi professional faoliyati bilan bog'lanishi lozim. Natijada, xalqarolashuv ingliz tili ta'limiga tashqi talab sifatida emas, balki uning maqsadi, mazmuni, kommunikativ vazifalari va kutiladigan ta'lim natijalarini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'luvchi pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, oliy ta'limni xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirishning nazariy asosi turli ilmiy maktablarda ishlab chiqilgan xalqarolashuv, EAP, ESP, EMI, akademik janr va madaniyatlararo kommunikatsiya konsepsiyalarining o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Oliy ta'limni xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirish masalasining nazariy tahlili xalqarolashuvni faqat oliy ta'lim muassasasining xalqaro aloqalari, akademik mobillik yoki xorijiy hamkorlik doirasida tushunish yetarli emasligini ko'rsatdi. Knight, de Wit va Leask tadqiqotlari xalqarolashuvning ta'lim dasturlari va pedagogik jarayon mazmuniga integratsiyalashuvi zarurligini asoslash imkonini beradi. Ayniqsa, Leaskning o'quv dasturini xalqarolashuv konsepsiyasi ingliz tili ta'limi mazmunini xalqaro va madaniyatlararo akademik muhit talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tahlil qilingan tadqiqotlar ingliz tilining zamonaviy oliy ta'limdagi funksiyasi ham sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Ingliz tili umumiy xorijiy til sifatidagi funksiyasi bilan bir qatorda ilmiy axborotdan foydalanish, akademik muloqot, xalqaro hamkorlik va kasbiy kommunikatsiyaning muhim vositasiga aylanmoqda. Shu sababli ingliz tili ta'limining mazmunini faqat grammatik, leksik va umumiy kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklash xalqarolashgan oliy ta'limning yangi ehtiyojlarini to'liq qamrab olmaydi.

EMI, EAP va ESP bo'yicha tadqiqotlar tahlili ingliz tili ta'limi mazmunini differensial va funksional asosda tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Macaro va hammualliflarning EMI bo'yicha tadqiqotlari ingliz tilida fan o'qitishning til va mazmunni o'zlashtirish bilan bog'liq murakkab jihatlarini ochib bergan bo'lsa, Macaro va Aizawa tadqiqotlari EMI, EAP va ESPning o'zaro yaqinligi bilan birga, ularning maqsad va tadqiqot obyektlari jihatidan farqlanishini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, ushbu tushunchalarni bir-birining o'rnida qo'llash emas, balki ularning pedagogik imkoniyatlarini o'zaro bog'langan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir. EAP va akademik diskurs bo'yicha Swales hamda Hylandning nazariy qarashlari ingliz tili ta'limi mazmuniga akademik o'qish, yozish, argumentatsiya, taqdimot va ilmiy muloqot kabi faoliyatlarni tizimli kiritish zarurligini asoslaydi. Hutchinson va Watersning ESP konsepsiyasi esa mazmunni talabaning mutaxassisligi va kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'lash imkonini beradi. Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi esa xalqaro akademik muhitda samarali muloqot uchun lingvistik bilimlarning o'zi yetarli emasligini ko'rsatadi.

Shu asosda oliy ta'limni xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirishning pedagogik asosi uch o'zaro bog'liq yo'nalishda, ya'ni akademik yo'nalganlik, kasbiy yo'nalganlik va madaniyatlararo yo'nalganlikni umumlashtirishga asoslanadi. Ularning negizida umumiy kommunikativ-lingvistik tayyorgarlik saqlanadi, biroq mazmunning yakuniy maqsadi talabaning ingliz tilidan xalqaro akademik va professional faoliyatda mustaqil hamda samarali foydalana olishiga yo'naltiriladi. Shunday qilib, oliy ta'limni xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirishning asosiy mohiyati mavjud o'quv materiallarini shunchaki yangilashda emas, balki ta'lim mazmunining funksional yo'nalishini o'zgartirishda namoyon bo'ladi. Ingliz tili talabaning xalqaro akademik va kasbiy faoliyatini ta'minlovchi kommunikativ vosita sifatida qaralgandagina xalqarolashuv jarayonining pedagogik maqsadlari bilan uzviy bog'lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Knight, J. (2004). Internationalization remodeled: Definition, approaches, and rationales. Journal of Studies in International Education, 8(1), 5–31. https://doi.org/10.1177/1028315303260832
2. Leask, B. (2015). Internationalizing the Curriculum. Routledge.
3. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge University Press.
4. Hyland, K. (2009). Academic Discourse: English in a Global Context. Continuum.
5. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters.
6. Macaro, E., Curle, S., Pun, J., An, J., & Dearden, J. (2018). A systematic review of English medium instruction in higher education. Language Teaching, 51(1), 36–76. https://doi.org/10.1017/S0261444817000350
7. Macaro, E., & Aizawa, I. (2024). English medium instruction, EAP/ESP: Exploring overlap and divergences in research aims. International Journal of Applied Linguistics. https://doi.org/10.1111/ijal.12563
8. Rose, H., Sahan, K., Wei, L., Aizawa, I., Zhou, S., & Shepard, M. (2026). A systematic review of English medium instruction in higher education: An update of Macaro et al. (2018). System, 136, 103892. https://doi.org/10.1016/j.system.2025.103892

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.